FE'L MAYLLARI TASNIFI VA ULARNING ARAB TILIDAGI MUQOBILLARI

Mardonov Samariddin
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
E-mail: samariddinmardonov128@gmail.com

Qabul qilindi: 26.10.2025 **Tasdiqlandi**: 27.10.2025
Ko'rib chiqildi: 26.10.2025

O'zbek tili grammatik tizimida fe'l mayllari harakatning voqelikka munosabatini ifodalovchi muhim grammatik kategoriya hisoblanadi. Harakatning bajarilishi, bajarilmasligi yoki unga bo'lgan munosabat aynan mayl kategoriyasi orqali ifodalanadi. Shu jihatdan, mayl kategoriyasining tahlili tilshunoslikda, xususan, o'zbek va arab tillari qiyosiy grammatikasida dolzarb mavzulardan biridir. Mazkur mavzuning dolzarbligi arab tilida o'zbek tilidagi "mayl" kategoriyasi bilan to'g'ridan-to'g'ri muqobil tushuncha mavjud emasligi, ammo bu ma'no e'rob tizimi orqali ifodalanishi bilan izohlanadi.

Mayl kategoriyasi zamon va shaxs-son kategoriyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, hammasi birgalikda fe'lning tuslanish sistemasini tashkil qiladi, predikativlik ifodalanish formasi hisoblanadi. Shunga ko'ra mayl kategoriyasi harakatning voqeylikka munosabatinigina emas, balki bajaruvchi bilan harakat orasidagi aloqaning voqelikka munosabatini ham ifodalaydi. Masalan, kel, o'qi, ishla yoki kelsa, o'qisa, ishlasa kabi formalarda hali bajarilmagan harakat, uning bajarilishi haqida buyruq, shart ma'nolari ifodalansa, keldi, o'qigan, ishlayotir, kelaman, kelaman, o'qigan eding, ishlayotgan edi kabi shakllarda real ravishda bajarilgan yoki bajarilayotgan va bajariladigan harakat haqida xabar beriladi.[1]

Demak, mayl kategoriyasida buyruq, istak, maslahat, shart, ijro etilish haqida xabar kabi turlicha ma'nolar ifodalanadi. Shunga ko'ra mayl kategoriyasi anglatgan ma'nolar modal ma'nolar hisoblanadi.

O'zbek tilida fe'lning mayl shakllari quyidagi ko'rinishlarga ega bo'lib, bular ma'no va morfologik ifodalanishi jihatidan bir-biridan farq qiladi:

1) xabar (ijro) mayli;
2) shart mayli;
3) buyruq-istak mayli.[2]

O'zbek tilida fe'l so'z turkumida so'zlovchining ish-harakatga munosabatining ifodalanishi fe'l mayli hisoblanadi. Fe'lning ushbu shakli arab tilidagi fe'l mayllariga ham ishlatsak bo'ladi va bu ularning yaqqol ta'rifi bo'la oldi, lekin arab tilida fe'l mayllari tushunchasi mavjud emas. Aksincha arab tilida so'zlovchining ish-harakatga munosabatini bildirish uchun e'roblardan ya'ni

[1] Turniyozov N. Rahimov A. O'zbek tili. - Samarqand, 2006. - 135b.
[2] Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. T.: 1997. – 29 b.

gapda so‘zlarning sintaktik vazifasini ifodalovchi birliklardan foydalaniladi, bunda hozirgi kelasi zamon fe’lining qaysi sintaktik vazifada kelganligi va u bog‘lanib kelgan ko‘makchi yoki yuklamaga qarab, ularni rof, jazm va nasb holatlariga ajratiladi.

اعراب الفعل المضارع

أولَا رفع المضارع:

يرفع المضارع إذا تجرد من الناصب و الجزم. علامة رفعه: له علامتان: (الضمة, و ثبوت النون)

١- الضمة: إذا لم يكن الفعل من الأفعال الخمسة.

٢- ثبوت النون: إذا كان الفعل من الأفعال الخمسة.[3]

Hozirgi kelasi zamon fe’li e’roblari

Hozirgi kelasi zamon fe’li rof (رَفْعٌ), jazm (جَزْمٌ) va nasb (نَصْبٌ) holatlarida bo‘la oladi.

Hozirgi kelasi zamon fe’lining rof holati, o‘zbek tilidagi xabar (ijro) maylining muqobili hisoblanadi, chunki bularning har ikkalasida ham voqea hodisaning bajarilganligi yokibajarilmaganligi haqida gap boradi va unga bo‘lgan munosabat asosiy o‘rinda turmaydi.

Birinchidan - Hozirgi kelasi zamon fe’lining Rof (رَفْعٌ) holati:

Agar Hozirgi kelasi zamon fe’li jazm (جَزْمٌ) va nasb (نَصْبٌ) holatlarida kelishini talab qiladigan yuklamalardan holi bo‘lsa fe’lni rof (رَفْعٌ) holatiga qo‘yamiz. Rof (رَفْعٌ) holati alomatlari:

Uning ikkita alomati bor:

1. Hozirgi kelasi zamon fe’lining so‘ngida Damma (ُ) harakatining mavjudligi. Agarda hozirgi kelasi zamon fe’li cho‘ziq unlidan keyin kelgan nunlar (اَلْأَفْعَالُ الْخَمْسَةُ)dan biri bo‘lmasa.

2. Cho‘ziq unlidan keyin kelgan nunlar (اَلْأَفْعَالُ الْخَمْسَـةُ) oxiridagi nun (ن) harfining tushib qolmasligi.

Hozirgi kelasi zamon fe’linig nasb (النصب) holatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu arab tili grammatikasiga doir yozilgan o‘zbek tilidagi darslik va qo‘llanmalarda fe‘lning ushbu holati shartli ravishda istak mayli shaklida berilganligining guvohi bo‘lamiz. O‘zbek tilimizda istak maylini buyruq maylidan ayri tasavvur qila olmaymiz, chunki odatda ular bildirgan ma’no va yasalish uslublari bir-biriga juda o‘xshashdir. Shuningdek arab tilida nasb holati ko‘proq istak, sabab ma’nolarini ifodalaydi.

ثانيًا نصب المضارع:

ينصب المضارع إذا سبقه ناصبٌ. (أنْ وَ لَنْ). علامة نصبه:له علامتان:(الفتحة, و حذف النون):

١. الفتحة: إذا لم يكن الفعل من الأفعال الخمسة.

٢.حذف النون: إذا كان الفعل من الأفعال الخمسة.[4]

[3] خالد بن عبد العزيز. النحو التطبيقي. مصر .للنشر و التوزيع المنصورة. ٢٠١٨. صفحة 138.

[4] خالد بن عبد العزيز. النحو التطبيقي. مصر .للنشر و التوزيع المنصورة. ٢٠١٨. صفحة 139.

Ikkinchidan – Hozirgi kelasi zamon fe'lining nasb (نَصْبٌ) holati:

Agar, hozirgi kelais zamon fe'lining oldida لَنْ va أَنْ kabi nasb (نَصْـــبٌ) holatida kelishini talab qiladigan yuklamalar mavjud bo'lsa uni nasb (نَصْـــبٌ) holatiga qo'yamiz. Nasb (نَصْبٌ) holati alomatlari:

Uning ikkita alomati bor:

1. Hozirgi-kelasi zamon fe'lining so'ngida fatha (َ) harakatining mavjudligi.
2. Cho'ziq unlidan keyin kelgan nunlar (اَلْأَفْعَالُ الْخَمْسَـةُ) oxiridagi nun (ن) harfining tushib qolganligi. Bunga xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi kelasi zamon fe'linig nasb holatida ya'ni istak maylida turanligini uning oldida turgan istak mayli yuklamalari orqali yoki cho'ziqdan keyin kelgan nunlar (اَلْأَفْعَالُ الْخَمْسَةُ)ning tushirib qoldirilganligi orqali aniqlab olsak bo'lar ekan.

ثالثًا جزم المضارع:

بجزم المضـارع إذا سـبقه جازم. (لم, ولا الناهية). علامة الجزمه: له ثلاث علامات: (السـكن, و حذف خرف العلة, وحذف النون):

١- السكون: إذا كان الفعل صحيح الآخر, و لم يتصل بآخره شيء.

٢- حذف خرف العلّة: إذا كان الفعل مؤتلّ الآخر, و لم يتصل بآخره شيء.

٣- حذف النون: إذا كان الفعل من الأفعال الخمسة.[5]

Uchinchidan – Hozirgi kelasi zamon fe'lining jazm (جَزْمٌ) holati.

Agar, hozirgi kelasi zamon fe'lining oldida لَمْ va (لَا اَلنَّاهِيَةُ) taqiq لَا si kabi jazm (جَزْمٌ) holatida kelishini talab qiladigan yuklamalar mavjud bo'lsa fe'lni jazm (جَزْمٌ) holatiga qo'yamiz.

Jazm (جَزْمٌ) holati alomatlari:

1. Hozirgi kelasi zamon fe'lining so'ngida sukun (ْ) harakatining mavjudligi.
2. Hozirgi kelasi zamon fe'li oxiridagi illat harfning tushib qolishi.

Cho'ziqdan keyin kelgan nunlar (اَلْأَفْعَالُ الْخَمْسَةُ) oxiridagi nun (ن) harfining tushib qolganligi.

Fe'l shakllari fe'lning ma'lum bir grammatik kategoriyasiga xos shakllar tizimini hosil qilish xususiyatiga ega yoki ega emasligiga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1) kategorial; 2) nokategorial (vazifadosh) shakl. Kategoriyal shakl, fe'lning ma'lum bir kategoriyasiga xos grammatik ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, daraja, mayl, zamon va shaxs-son kategoriyalariga xos shakllar ana shunday fe'llardir.[6] O'zbek tilida fe'lni aynan shu shaklda o'rganib chiqamiz.

Xulosa qilib aytganda arab tilidagi fe'llarning e'roblari tushunchasi, o'zbek tilidagi fe'l mayllari tushunchasidan ancha kengroq mavzu hisoblanadi. Chunki o'zbek tilida mayllar nisbatan torroq va xoslangan ma'no bildirishga moslashgan, lekin arab tilida yuklamalardan keng foydalanilganligi tufayli,

[5] خالد بن عبد العزيز. النحو التطبيقي. مصر .للنشر و التوزيع المنصورة. ٢٠١٨. صفحة 139.

[6] Turniyozov N. Rahimov A. O'zbek tili. - Samarqand, 2006. - 135b.

yuklama bildirgan ma'no va fe'l bilan tasirlashuvi natijasida keng ma'nolarni ifodalash imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. T.: 1997. – 171b.
2. Каримов С. Ўзбек тилининг грамматик услубияти. – Самарқанд, 2012. – 319б.
3. Turniyozov N. Rahimov A. O'zbek tili. - Samarqand, 2006. - 175b.
4. الشيخ مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية. الجزء الثلاثة. بيروت. مؤسسة الرسالة. 2010. صفحة 809.
5. خالد بن عبد العزيز .النحو التطبيقي. مصر .للنشر و التوزيع المنصورة. ٢٠١٨. صفحة 600.

ELEKTRON MANBA

1. https://oriens.uz/media/journals/
2. https://book.iiau.uz/book?id=9009
3. http://library.navoiy-uni.uz/files/